

## HOFIZ G'AZALLARIDAGI PIRI MUG'ON OBRAZINING UMUMIY XUXUSIYATLARI

Aidaxon Merganova Bumatova, TDO'TAU ilmiy tadqiqotchisi  
(PhD)

## GENERAL CHARACTERISTICS OF THE IMAGE OF THE MASTER MAGI IN HAFEZ'S GHAZALS

Aidakhon Merganova Bumatova, research, TSUULL(PhD)

### ОБЩИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОБРАЗА ПРЕДВОДИТЕЛЕЙ МАГОВ В ГАЗЕЛЯХ ХАФИЗА

Буматова Аидахон Мергановна, исследователь ТГУУЯЛ  
(PhD)

**Annotatsiya:** Hofiz Sheroziy g'azallari o'zining nihoyatda go'zal va betakror obrazliligi bilan mashhur. Mazkur tadqiqot doirasida muhokamaga tortiladigan "piri mug'on" obrazi Islom emas, Eronning Islomgacha bo'lgan davrida hukmron bo'lgan din – Zardushtiylikdan olingan. Hofiz bu obrazni qo'llagan yagona shoir bo'lmasa-da, bu obrazga bo'lgan chuqur hurmati uni ba'zi dindorlar tomonidan Islomdan chiqish va kufrda ayblash uchun sabab bo'lgan. Bu tadqiqot, Hofizning baytlaridagi piri mug'on obrazining asosiy xususiyatlarini ochib berishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Hofiz Sheroziy, mumtoz she'riyat, g'azal, bayt, poetik til, obraz, piri mug'on, otashgoh, Zardushtiylik.

**Аннотация:** Газели Хафиза Ширази известны своей чрезвычайной образностью. В рамках данного исследования обсуждается образ «предводителей магов», который взят не из ислама, а из религии, доминировавшей в Иране до Ислама, – Зороастризма. Хотя Хафиз не был единственным поэтом, использовавшим этот образ, его глубокое уважение к нему стало причиной обвинений со стороны некоторых верующих в отступлении от ислама и неверии. Это исследование посвящено раскрытию основных характеристик образа «предводителей магов» в бейтах Хафиза.

**Ключевые слова:** Хафиз Ширази, классическая поэзия, газель, бейт, поэтический язык, образ, предводитель магов, храм огня, Зороастризм.

**Abstract:** The ghazals of Hafez-e Shirazi are famous for their exceptionally beautiful imagery. Within the scope of this study, the discussed image of "master magi" is derived not from Islam, but from Zoroastrianism, the religion that dominated Iran before Islam. Although Hafez was not the only poet to use this image, his deep respect for it led some religious followers to accuse him of apostasy and disbelief. This study is dedicated to revealing the main characteristics of the master magi image in Hafez's couplets.

**Key words:** Hafez-e Shirazi, classical poetry, ghazal, couplet, poetic language, image, master of magis, fire temple, Zoroastrianism.

**Kirish.** Islomning Eronda yoyilishiga qadar, u yerda dualizmga asoslangan Zardushtiylik dini

hukmron bo'lgan. Bugungi kunda uning eng keng tarqalgan xususiyatlari sifatida tabiat unsurlarining



E-mail:

[aidabumatova@gmail.com](mailto:aidabumatova@gmail.com)

<https://orcid.org/0000-0002-6757-475X>

Tel: (97) 724 10 59

muqaddasligi, shuning uchun ham suvni iflos qilish katta gunohligi; yerni ifloslikdan saqlash maqsadida o'liklarni bevosita yer ostiga dafn qilinmasligi; olovning poklovchi xususiyati bor deb hisoblangani uchun uning muqaddas sanalishi va otashxonabodatxonarning qurilgani; inson hayoti davomida "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" qilishga da'vat etilgani; "Avesto"ning bu dinning muqaddas kitobi sifatida tan olinishini keltirish mumkin.

Zardushtiylik ta'lomitiga ko'ra, dunyo Zurvon ya'ni Zamonning zulmat xudosi Axriman va yorug'lik xudosi Ahuramazdani yaratishi bilan boshlanadi. Axriman birinchi yaratilgan shuning uchun ham u yaratilgan dunyoni boshqarishga da'vat qilgan. Shu tariqa, yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat orasidagi abadiy kurash boshlanadi. Bundan tashqari Zardushtiylikda "getiy" deb atalgan moddiy olam, hamda "menok" deb atalgan abadiy olam ham mavjud. Getiy yaratganning aksi bo'lib, u yomonlikni yo'q qilish uchun yaratilgan. Getiy, ya'ni biz yashab turgan moddiy olamda, Ahuramazda Axrimanga ruxsat bergen muddat davomidagina yomonlik yaxshilik ustidan g'alaba qozona oladi. Mazkur maqolada Hofizning Zardushtiylik diniga mansub bo'lgan obrazlarning o'z g'azallarida qo'llashiga doir fikrlar keltiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Bu mavzuga tegishli fikrlarni Hofiz Sheraziyning lirik merosini tadqiq etishga qaratilgan bir necha ishlarda kuzatish mumkin. Xususan, uning g'azallarida keltirilgan obrazlarning ba'zi tahlillarini J.S.Meissami [3], E.Yarshater [4], M.Azimov [5] va M.Anser [6]larning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. Mazkur tadqiqot Hofiz Sheraziyning g'azallarida keltirilgan va Zardushtiylik diniga mansub bo'lgan Piri Mug'on obrazining o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy va kontekstual, shu bilan birga tarixiy-tadrijiy tahlil metodlari orqali tahlil qilishga qaratilgan.

**Natijalar.** Obrazlilik inson hayotida ham, she'riyatda ham juda muhim o'rinni egallaydi. Inson tasavvurining eng ko'p ta'siri diniy tafakkurda namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo hududlari va Eron deb ataladigan yerlarda azal-azaldan turli dinlar mavjud bo'lgan. Biz bugun mumtoz fors adabiyoti deb ataydigan davrga mansub fors tilida ijod qilgan shoirlar Zardushtiylik simvolikasi asosida yangi ramzlar tizimini yaratadi, masalan, piri mug'on, mug'bachayi hadafurush (may

sotuvchi zardusht yigit), xaroboti mug'on (zardushtiy mayxonasi). Shu nuqtai nazardan, Zardushtiylik dinining umumiyligi tushunchalarini bilish, masalan, Sanoiy, Attor, Iroqiy, Mavlono, Sa'diy va Hofiz g'azallaridagi obrazlarni tushunishga yordam beradi. Xususan, Hofiz Sheraziyning Devoni [1] matni tahlil qilinganda, undagi 25 ga yaqin g'azalda aynan "Piri mug'on" birikmasi bevosita ishlatilgani aniqlandi. Mazkur maqolaning hajm jihatidan chegaralanganini hisobga olgan holda, so'z yuritilgan baytlarning tahlili boshqa maqola doirasida nashrga tayyorlanmoqda. Umuman olganda, shoirning g'azallarida piri mug'on bag'rikeng, mehrli, kechirimli va karamli obraz sifatida namoyon bo'ladi. Shoir u bilan muammolarni muhokama etadi, unga dardini aytadi, undan maslahat oladi, unga sirlarini ishonadi, uning muridiga aylanadi, o'zini uning sodiq hamrohi sanaydi. Shu bilan birga, bu obrazning shoirning baytlarida uchraydigan boshqa bir guruh – riyokor ulamolar va din peshvolariga antagonist sifatida qo'yiladi. Baytlarni o'qir ekansiz, xuddiki shoir, bu kabi dinni ko'rgazma qilib e'tiqod qiluvchi musulmonlar va boshqa kishilarni jonini og'ritadigan shayxlar dastidan, umuman olganda mushrik hisoblangan va otashxonaning rohibi bo'lgan piri mug'on qoshiga intilishini tushunish qiyin emas.

**Muhokama.** Musulmon sharqi mumtoz she'riyati, xususan, g'azal janrida, Zardushtiylik diniga tegishli bo'lgan obrazlarning qo'llanilishi an'ana tusiga kirgan. Xususan, Hofiz Sheraziyning baytlarida ham aynan shu dinga tegishli bo'lgan "Piri mug'on" – "mug'larning piri, ustoz, rahnamosi" obrazining ham alohida o'rni bor. Forscha pir so'zining lug'aviy ma'nosi "yoshi ulug' kishi"dir, ammo bu so'z "dono, ustoz, rahbar, rahnamo, ilimi inson yoki Har qanday diniy tashkilot yoki oqim asoschisi yoki rahbari bo'lgan keksa odam [7]" kabi kontekstual ma'nolarda ham qo'llanilishi mumkin. Forscha "mug'" [8] so'zi esa "olovga sig'inuvchi; mayxona; beandisha ko'ngilochar uy; go'zal qiz; musulmonlar tomonidan kofir yoki olovga sig'inuvchilar bilan tenglashtirilgan nasroniy rohiblar birodarligi; Ozarbayjondagi tuman nomi" [9] kabi ma'nolarga ega. Fors tilining etimologik lug'atiga ko'ra bu so'z "magus" yoki "majus" ko'rinishidagi so'zdan olingan bo'lib, – "Zardushtiylar" ibodatxonasingning

ruhoniysi”[2:454]ni anglatgan. Hozirgi ingliz tilidagi “magic va magician” ya’ni “sehr va sehrgar” so’zları ham aynan shu so’zdan olingan. Sababi, Eronzaminga bostirib kelgan arab qo’shinlari Zardusht va zardushtiyarlarni sehr-u jodu bilan shug’ullanishiga ishonişgan. Shunday qilib g’azallardagi piri mug‘on obrazı musulmon bo’lmagan ruhoniy, mug‘larning oqsoqoli, muqaddas kishi, shayx, hakim, mistik va mayxona

sohibi kabi obrazlarning jamlanmasidir. Musulmon dindorlari uchun Piri Mug‘on eng jirkanch shaxs sifatida qabul qilingan bo’lsa-da, irfoniy ma’noda u Haqni tanigan va muridlariga ham bu borada ma’rifat ulashishga qodir dono ustoz sifatida talqin qilingan.

Ammo, piri mug‘onga bag‘ishlangan ko’pchilik baytlar, Hofizning unga nisbatan bardavom sadoqatini ifodalaydi. Xususan: [1:205]

تاز میخانه و می نام و نشان خواهد بود	Toki mayxona va sharob bor bo‘lar ekan,
سر ما خاک ره پیر مغان خواهد بود	Boshimiz Piri mug‘on yo‘lidagi tuproq bo‘ladi.

Yoki: [1:353]

حافظ جناب پیر مغان جای دولت است	Hofiz, Piri mug‘on huzuri saodat joyidir,
من ترک خاک بوسى این در نمیکنم	Men bu eshik tuprog‘ini o‘pishni tark etmayman.

Yoki: [1:343]

چل سال بیش رفت که من لاف میزنم	Qirq yil o‘tdi, va men hali ham maqtanaman
کز چاکران پیر مغان کمترین منم	Piri mug‘on xizmatkorlari orasida eng kichigiman.

Baytlarda Piri mug‘on oldidagi kamtarlik va sadoqat ifodalangan. “Boshini birovning yo‘lida tuproq” ekanini ta’kidlash va “tuproqni o‘pish” Hofiz va uning izdoshlarining Piri mug‘onning yo‘riqlariga shartsiz ergashishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Xuddi shu kabi fikrni quyidagi baytda ham ko‘rish mumkin: [1:250]

دولت پیر مغان باد که باقی سهل است	Piri mug‘onning baxti bo‘lsin, qolgani oson,
دیگرى گو برو و نام من از ياد بير	Boshqalarga ayt, ketsin va ismimni unutishsin.

Hofiz dunyoga qiziqmaydi, unga insonlarning u haqda qanday fikrda ekani mutlaqo qiziq emas. Uning uchun piri mug‘on vositasida haqni tanishdan muhim narsa yo‘q. Hofiz uchun piri mug‘on muhim, usiz shoir tushkunlikka tushib qoladi:

گرم نه پیر مغان در به روی بگشايد	Agar Piri mug‘on menga eshikni ochmasa,
کدام در بزم چاره از کجا جويم	Qaysi eshikni qoqaman, qayerdan davo izlayman?

O‘z navbatida, Piri mug‘onga ergashgan hamma ham uning donoligidan to‘g‘ri foydalana olmasligi, natijada esa pirga malomat kelishi ta’kidlangan: [1:200]

تشویش وقت پیر مغان میدهند باز	Piri mug‘on yana tashvishda vaqt kechirmoqda,
این سالکان نگر که چه با پیر میکن	Bu soliklar qariga nima qilishayotganini ko‘ring.

Baytda ba’zi soliklar, aslida Piri mug‘on yo‘riqlarini noto‘g‘ri tushunib, muammolarga sabab bo‘lishi tasvirlangan. Ya’ni umumiy ma’noda mukammal g‘oyaning nomukammal amalga oshirilishi masalasi tasviri.

گر مدد خواستم از پیر مغان عیب مکن	Agar Piri mug‘ondan yordam so‘rasam, meni ayblamang,
شیخ ما گفت که در صومعه همت نبود	Bizning Shayximiz aytdiki, xonagohda haqiqat yo‘q emish. [1:208]

Baytda Hofiz ortodoks diniy amaliyotlardagi ikkiyuzlamachilik va yolg‘onning gurkirab ketganini tanqid qiladi. Shuning uchun ham u o‘zini pirga bog‘laydi: [1:158]

بنده پیر مغانم که ز جهلم بر هاند	Men Piri mug‘onning bandasiman, chunki u meni johillikdan qutqaradi,
پیر ما هر چه کند عین عنایت باشد	Bizning Piri mug‘onimiz nima qilsa ham, u sof inoyatdir.

Hofizga ko‘ra, Piri mug‘onning barcha harakatlari ilohiy inoyatning namoyishidir. Shu sababdan ham, Hofiz unga bu darajada ixlos qo‘yan; Hofiz haqiqiy ma’rifat va inoyat shunday dono va mehribon ustozga ergashish orqali kelishini ta’kidlaydi.

گفتم شراب و خرقه نه آین مذهب است	Sharob ichish va xirqa kiyish bizning dinimiz odatlari emas, dedim,
گفت این عمل به مذهب پیر مغان کنند	U dedi, bu amal Piri mug‘onning dinida qilinadi.

Bayt ortodoks diniy amaliyotlar va Piri mug‘on bilan bog‘liq erkin, mistik amaliyotlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Bu Hofizning an’anaviy ammo mexanik tarzda, yuzaki qilinadigan diniy qoidalarga qat’iy rioya qilishdan ko‘ra, shaxsiy e’tiqod va donolikni ustun ko‘rishiga misoldir.

**Xulosa va takliflar.** Piri mug‘on haqiqiy e’tiqodning ideal namunasidir. Turli diniy ulamolar o‘z foydasi va nafbsini o‘ylab, odamlarni do‘zax bilan qo‘rqitib, ulardan foydalangan bir paytda, Hofizning piri mug‘oni uning qalbiga umid va osoyishtalik beradi. Hofizga esa, oshiq sifatida bu juda zarur edi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. DIVĀN-E HĀFEZ (QAZALHĀ). E.Habibi, H.Farroukh, Sh.Bakshaie, 2015
  2. Hasan-Dust, Mohammad. *Farhang-e riše-šenahti-ye zabān-e fārsi*. 5 jelđ.Tehrān: Farhangestān-e zabān-o adab-e Fārsi. 1394, 454-b.

3. Meisami, Julie Scott. *Medieval Persian Court Poetry*. Princeton – 1987.
  4. Yarshater, Ehsan. “The Theme of Wine-Drinking and the Concept of the Beloved in Early Persian Poetry.” *Studia Islamica*, vol. 13, 1960, pp. 43-53.
  5. Азимов, М. Ҳофиз Шерозий ва ўзбек адабиёти. Техрон – Тошкент – 2004;
  6. Ансор, М. Шарҳи 42 ғазали Ҳофиз: Ба ёрийи омузгорони мактабҳои оливу миёна, донишчуён ва мактабиён. Душанбе – 1994;
  7. [https://dsal.uchicago.edu/cgi-bin/app/steingass\\_query.py?qs=%%&searchhws=yes&matchtype=exact](https://dsal.uchicago.edu/cgi-bin/app/steingass_query.py?qs=%%&searchhws=yes&matchtype=exact)
  8. [https://dsal.uchicago.edu/cgi-bin/app/steingass\\_query.py?qs=%م&searchhws=yes&matchtype=exact](https://dsal.uchicago.edu/cgi-bin/app/steingass_query.py?qs=%م&searchhws=yes&matchtype=exact)
  9. [https://dsal.uchicago.edu/cgi-bin/app/steingass\\_query.py?qs=%معان&searchhws=yes&matchtype=exact](https://dsal.uchicago.edu/cgi-bin/app/steingass_query.py?qs=%معان&searchhws=yes&matchtype=exact)

